

Boylarning g'alamis tashviqotlari



13:17 / 11.04.2021 2261

Ba'zilarning Solih alayhissalomga moyil bo'layotganini ko'rgan boy-badavlat kimsalar o'zlarining boshliqliklaridan ajrab qolishdan qo'rqib, tipirchilab qolishdi. Ular dedilar:

«Bu sizga o'xshagan bashar, xolos. Siz yegan narsadan yeydi, siz ichgan narsadan ichadi. Agar o'zingizga o'xshagan basharga itoat qilsangiz, unda, albatta, siz ziyonkorlardandirsiz. U sizga, o'lsangiz, tuproq va suyak bo'lsangiz ham, albatta, chiqarilguvchi bo'lishingizni va'da qilmoqdam?! Hayhot! Hayhot! Sizga va'da qilingan narsa naqadar uzoq! Shu dunyodagi hayotimizdan boshqa hayot yo'qdir. O'lamiz, tirilamiz va biz qayta tirilguvchi emasmiz. U faqat Allohga nisbatan yolg'on uydirgan odam, xolos. Biz unga iymon keltirguvchi emasmiz», (Mo'minun surasi, 33-38-oyat).

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad